

## G'AFUR G'ULOM "NETAY" QISSASI

**Mamatkulova Sitora Uktamovna**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola G'afur G'ulomning "Netay" qissasi haqida bo'ladi. Unda siz ushbu qissaga oid fikrlarni tartibli va jamlangan holatda ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** davr, netay ismi, g'afur g'ulom, mohiyat.

"Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari va "Shariat nayranglari" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliylikimiz tavsirlangan.

Ushbu qissa haqida so'z borar ekan uning muallifi bo'lmish mehnatsevar, qalamga oshno yozuvchini ham eslash joizdir.

G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda yurtimiz poytaxti Toshkentda tavallud topdi. Va u bir qator sez mazmun va ibratli asarlarga mualliflik qildi. 1966-yil 10-iyulda bu yorug' olamdan ko'z yumdi. Va biz yosh avlod yohud jamiyki qalam ahli , toliblar uning bizga qoldirgan merosidan hamon foydalanmoqdamiz.

"Netay" qissasi — keng ijtimoiy umumlashmalarga boy ajoyib asar. Syujet asosiga haqiqiy voqea qo'yilgan. So'nggi Buxoro amiri Peterburgga safari chog'i Toshkentda to'xtaydi. Amir mamnun va xursand bo'lishi uchun boylar hamma narsa qiladi. Uning huzuriga ermak uchun Netay ismli qizni keltirishadi.

Savr oylarining uzluksiz yomg'irlari ko'katlarni qulog'idan tortib chiqargan. Havo musaffo. Quyosh yig'ilar so'ngidan kulgan qiz kabi shabnamli kipriklari bilan ko'k o'rtasidan mo'ralaydi.

Navro'ziy bedanalarning paydar-pay sayrashlari ko'klam keliniga: «Xushvaqt, xushvaqt...»—deb chuchut otadi.

Qish bo'yi to'kmada qo'r to'kkan yigitlar kurash olg'uday bir maydon qidiradilar.

Faqat Andreevskiy (Poyqovoq) ko'chasi uchun yilning har to'rt mavsumida ham ko'klam. Uning o'ziga ayrim quyoshlari bor. Uning bedanalari uzluksiz sayroqi, yigitlari har qachon bir-birovlari bilan kuch sinashadi...

U sho'x. U har qanday bahradan, har qanday tashvishdan xabarsiz yashaydi. Uning o'ziga maxsus bahrasi, o'ziga maxsus tashvishi bor.

Unda na sipohlik, na vazminlik; teskarisicha, bo'ydoq qahqaha, sayoq ashula, ishvali chaqchaq, mast hayqiriq yoppasiga hukmron. Ko'cha bo'ylab shirali, faqat achchiq hid egalik qiladi.....

deya boshlangan ushbu qissa.

Po'ltaxon, Santalatxon, Zebixon, Xoldorxon, Saodatxon, Ma'rifatxon, Lutfixon singari bir guruh umumiy ma'shuqalar bu ko'channing qalblari. Shulardangina bu ko'channing doim bahori.

Shularnigina deb shaharning kosibi, chapani o'spirinlari uzoq-uzoq yerlardan keladilar. Topganlarini to'kib soladilar. Yor uchun ichadilar, mahbub uchun to'n va etiklarigacha garovga qo'yadilar. Nima bo'lsa hamki, Zebixonning bir damlik suhbat, bir payt ashulasi, oy kabi jamoli, qaddi barkamolidan bahramand bo'lsinlar. Ular raqib bilan talashib mushtlashishga, dildor amri bilan kishi o'ldirishga va kerak bo'lgan-da, o'lishga ham tayyorlar.

Yetsa mol, yetmasa jon!

Shuning uchun ham Poyqovoqni bosib, Salorga quyuvchi ariq ba'zida kechanning uyatidan, ba'zida fahsh va jinoyatning shiddatidan qizarib, bug'riqib oqadi.

Shular uchungina shoirlar o'rtanib she'r yozadilar. Qoshlarning qoraligi, sochlarning muattarligi, bellarning tolmaligi, yuzlarning naqshin olmaligi to'g'risida aql yurgizadilar: Qoshlarin mehrobida so'fi ko'ngil qildi vatan,

Tishlaring vasfida qimmatlanmadi durri Adan,  
Ming Zulayxo husnida la'li labingga berdi tan,  
Sochlaring bo'kida bozori kasod mushki Xo'tan,  
Ko'p qaro xoling ko'rib, Hindida g'avg'o, Zebixon.

Jon olarga jodu ko'zlar surmadan kiydi qaro,  
Tig'i mujgoning bilan har dam ko'ngilda ming yaro,  
Lutf ila bu oshiqi majnunningga bir dam qaro,  
Chun Masiho murda tan topsin hayot olam aro,  
Bu qulingga bir nigohing ayla savg'o, Zebixon,—

deydilar. Davralarning bo'g'iq havosini jirkanmay shimiradilar. Faqat Zebixon-Zebixonlar, Po'ltaxon-Po'ltaxonlar — badbaxtlar. Ko'ngillari yig'lar ekan, yullari kuladi. Qalblari haqoratlardan qonar ekan, ko'zlari ishva bilan suziladi.

Ularni o'zlari bilmagan zaruriyat, ko'zlari ko'rmagan majburiyat bu oltin girdoblarga uloqtirgan. Allaqaysi haris ko'zli sayyor bu oltin qafaslarga ularni qamagan.

Ular bunda faslli hurmat, sevimagan har joyi ulfatlarning quchog'ida istaksiz bo'g'iladilar.

Ular ko'pincha yig'laydilar.

Faqat bu yig'i ahmoqlar yig'isi. Chunki ularning xo'jayinlari bor. Ular o'z xo'jayinlariga umrbod qarzdor.

Tekin ovqat... Tekin kiyim-bosh... Tekin joy...

Endi bo'lsa Zebixonlarning o'ynab-kulganlari uchun suyunishlari, xo'jayinlariga minnatdorchilik bildirishlari kerak. Ular endi ozgina ishlashga, mehmonlar, harjoiy bir kechalik oshiqlar bilan o'ynashga, kulishga, ishva va nozlanishga og'irsinmasinlar...

Bu qissaning qisqacha ma'nosi bo'lib, u haqidagi fikrlarni bir-ikki qog'ozga sig'dirolmasligimizni bilamiz.

Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Shum bola" (1936-1962) qissalari va "Shariat nayranglari" (1930), "Mening o'g'rigina bolam" (1965) hikoyalarida chinakam xalq qahramonlari, milliyligimiz tavsirlangan.

"Netay" qissasi — keng ijtimoiy umumlashmalarga boy ajoyib asar. Syujet asosiga haqiqiy voqea qo'yilgan. So'nggi Buxoro amiri Peterburgga safari chog'i Toshkentda to'xtaydi. Amir mamnun va xursand bo'lishi uchun boylar hamma narsa qiladi. Uning huzuriga ermak uchun Netay ismli qizni keltirishi bilan ushbu satrlar o'zbek qalamga oshno shoiri va mehnatsevar, xalqparvar yozuvchisi G'afur G'ulom tomonidan o'z qalami bitilgan qissadir.

Ushbu qissa juda sez mazmun bo'lib davrdagi har qanday holatni aks ettira olgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1) Uzbek literature book
- 2) Maktab adabiyot kitoblari
- 3) ziyo . uz sayti